

IJTIMOIIY JARAYON SIFATIDA MODERNIZATSIYANING TARIXIY- SIVILIZATSION MODELLARI



Tunis Nurkosimovich Xojiev

O'zbekiston Milliy universiteti, Huquqiy fanlar kafedrası dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy rivojlanishga oid modernizatsiya nazariyalarining tarixiy-sivilizatsion modellari tahlil qilingan. Jumladan, ijtimoiy rivojlanishning modernizatsion nazariyasiga oid kategorial apparat uning tarixiy-siyosiy, metodologik jihatlarini ochib berilgan. Shuningdek, modernizatsion yondashuvga ko'ra, jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida shakllangan modellarning xususiyatlari ochib berilgan. Bunda ijtimoiy munosabatlar, xususan, jamiyat hayotining ma'naviy sohasi yuqorida aytib o'tilgan fenomenlar transformatsiyasiga ko'ra determinlashuvi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, ijtimoiy rivojlanish, modernizatsiya modellari, quvib yetuvchi modernizatsiya modeli, kechikkan modernizatsiya.

Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha kam rivojlangan yoki qashshoq mamlakatlari o'z jamiyatlarini rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish orqali dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishga harakat qilishmoqda. Bunday davlatlar rivojlanish uchun o'z jamiyatlarida ilg'or davlatlar tomonidan erishilgan yutuqlardan foydalanish yoki ularning taraqqiyot modellarini o'zlarining rivojlanish yo'nalishlari sifatida belgilamoqdalar. Ushbu jarayonda esa ko'pincha ijtimoiy rivojlanish to'g'risidagi konsepsiyalarga murojaat qilinadi.

Ijtimoiy rivojlanishga oid zamonaviy konsepsiyalar —jamiyatning rivojlanishi va taraqqiyotini turli ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatlardan tushuntirib beruvchi nazariyalar va yondashuvlar majmuasidir. Ushbu konsepsiyalar ijtimoiy o'zgarishlarni o'rganish va jamiyatlarning taraqqiyoti jarayonlarini tushuntirishga harakat qiladigan ko'plab nazariyalarga o'ziga qamrab oladi. Ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy konsepsiyalari sifatida barqaror rivojlanish, modernizatsiya, globallashuv, dunyo-tizimi, postindustrial jamiyat, ijtimoiy kapital nazariyalarni tadqiq etiladi. Quyida ushbu nazariyalarga ta'rif berib o'tamiz:

1. Barqaror rivojlanish nazariyasi - ushbu yondashuvda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillar birgalikda ko'rib chiqilib, barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini cheklamagan holda hozirgi mavjud ehtiyojlarni qondirishni o'z ichiga oladi.

2. Modernizatsiya nazariyalari - industrial va post-industrial jamiyatlarning shakllanishini tushuntirishga qaratilgan nazariya bo'lib, har bir jamiyat rivojlanish jarayonida an'anaviy jamiyatdan zamonaviy, industrial jamiyatga o'tadi.

3. Globallashuv nazariyasi. Ushbu konsepsiya dunyoda ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarning tobora kengayishi, texnologiyalar, axborot va madaniyatning global darajada tarqalishini tushuntiradi. Globallashuv natijasida jamiyatlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolib, tarixan yangi turdagi ijtimoiy tuzilmalar yuzaga keladi.

4. Dunyo-tizimi nazariyasi. Immanuel Vallerstein tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya butun dunyoni iqtisodiy va siyosiy jihatdan bir tizim sifatida ko'rib chiqadi. Unda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tahlil qilinadi va markaziy (rivojlangan), yarim-periferik va periferik (rivojlanayotgan) davlatlar tushunchalari qo'llaniladi.

5. Postindustrial jamiyat nazariyasi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, zamonaviy jamiyatlar industrial bosqichdan xizmatlar va axborot texnologiyalariga asoslangan jamiyatga o'tadi. Ushbu nazariya iqtisodiyotdagi mehnat tuzilmasi va texnologik taraqqiyotning ijtimoiy tuzilmalarga ta'sirini o'rganadi.

6. Ijtimoiy kapital nazariyasi. Bu nazariya ijtimoiy tarmoqlar, ishonch va o'zaro hamkorlik ijtimoiy rivojlanishga qanday ta'sir qilishini tushuntiradi. Ijtimoiy kapitalning yuqori darajada bo'lishi jamiyatlar uchun ijtimoiy resurslar va imkoniyatlarni yaxshilash imkonini beradi.

Zamonaviy ijtimoiy rivojlanish konsepsiyalari turli xildagi ijtimoiy jarayonlarni har tomonlama ko'rib chiqib, ularni tushuntirish uchun global, milliy va mahalliy darajalarda yondashuvlarni birlashtiradi¹.

Ushbu maqolada biz ijtimoiy rivojlanishga oid modernizatsiya nazariyalari organik va noorganik modellarini tahlil qilamiz. Ijtimoiy jarayon sifatidagi modernizatsiyaning tarixiy-sivilizatsion belgisiga ko'ra organik va noorganik modellarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Organik (spontan, birlamchi) modernizatsiya. AQSh, G'arbiy Yevropa va Avstraliyaga xos bo'lgan mumtoz xotik modernizatsiya modeli. Uning evolyusiyasi davomida mustamlakachilik, erkin tadbirkorlik davri, burjua inqilobi, spetsifik sinfiy ziddiyatlar, protestant etikasi, diniy urushlar o'z izlarini qoldirgan. Uni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy asoslar ko'rinishidagi omillar ko'magida organik va sinxronlik kuchiga tayanib, takomillashgan organik model sifatida tavsiflash mumkin.

Iqtisodiy sohada dastlabki kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi va texnik taraqqiyot bozor munosabatlarining faol sub'ekti hamda demokratiyaning ijtimoiy asosi sifatidagi o'rta sinfning tezlik bilan shakllanishiga olib keldi. Bu davrda birja savdosi va aksionarlik kompaniyalari vujudga keldi. Xususiy mulkchilik institutlarining taraqqiyoti va huquqiy jihatdan mustahkamlanishi jarayonini klassik modeldagi iqtisodiy modernizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Rim huquqini utilizatsiya qilgan holda uning qismi bo'lgan xususiy mulkchilik huquqi davlat huquqi maqomiga erishib, bunda ustuvor ahamiyat kasb etuvchi inson huquqlari qonuniy tus oldi. O'z navbatida xususiy mulkchilik institutlari fuqarolik jamiyati shakllanishining asosi sifatida xizmat qilib, davlatning fuqaro shaxsiy va ijtimoiy xayotiga aralashuvini muayyan ma'noda chekladi. Xususiy mulkchilikning rivoji siyosiy tizimni shakllantirgan sotsial manfaatlar xilma-xilligi bilan belgilanadi. U hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro va sudga bo'linishi hamda ko'ppartiaviylik, shuningdek, konstitutsiaviylik singarilarga tayangan holda plyuralistik va vakillik shaklida rivojlandi. Protestantlik etikasining sof foyda g'oyasi asosidagi reformatsiya orqali mustahkamlangan yuqori darajadagi savodxonlik shaxs mustaqilligini kuchaytirdi.

XIV - XIX asrlar oralig'ida kechgan modernizatsiya o'zining bosqichma-bosqichlilik, tadrijiylik, nisbiy barqarorlik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarini sinxron ravishda isloh qilish vaziyatni barqarorlashtiruvchi omillarni talab qilar edi. Bunga bozor turli sinfiy-ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo'luvchi keskin mulkiy farqlanuvchi qatlamlarni keltirib chiqargan murakkab vaziyatda yanada zarurat ortdi. Mustamlakalardan kirib kelgan va aholi o'rta qismida taqsimlangan o'ta yuqori daromadlar yuzaga keltirgan ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi tizimlar barqarorlikning ana shunday omili sifatida namoyon bo'ldi. Murosa va taraqqiyot madaniyatini shakllantirishga qodir madaniy an'analarning rivoji va din, ayniqsa, protestantlik o'ta darajada differensiallashgan jamiyatlarda muvozanatni saqlashga intiluvchi element bo'lib xizmat qiladi.

2) Noorganik (quvib yetuvchi, ikkilamchi) modeli. U Yaponiya, Rossiya, Turkiya, Braziliya, Argentina, bolqon davlatlariga xos bo'lib, ularda modernizatsiya jarayoni XVIII – XIX asrlarda boshlangan. Bu mamlakatlarda modernizatsiya taraqqiy etgan bozor, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat mavjud bo'lmagan bir sharoitda boshlandi. Bu jarayonda hokimiyat avtoritar harakter kasb etdi. Iqtisodiy asoslarning yetilmaganligi siyosiy omillar orqali muvozanatga solinib, kompensatsiyalandi. Byurokratlashish, islohotlarning amalga oshirilishida izchillikning yo'qligi, bosqichlardan sakrash orqali o'tish va shunga ko'ra ortga qaytuvchi harakat-regressning ro'y berishi singari hatarlar mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan davlat va uning yetakchisi bu modeldagi modernizatsiya jarayonlarida ro'y beruvchi o'zgarishlarning bosh generatori bo'lib xizmat qiladi.

¹ Рубанов А.В. Социальное развитие: традиции и современные подходы к изучению. Журнал Белорусского государственного университета. Философия. Психология. С-49-59.

Modernizatsiyani amalga oshirish uchun asoslarning yetarli emasligi bunday mamlakatlar oldiga o'ziga xos islohotlar mantig'i va strategiyasini ishlab chiqish talabini qo'yadi. Ispaniya va Portugaliya kabi Yevropa mamlakatlarining kechikkan modernizatsiyaga oid tajribalari tahlili mazkur modelga xos quydagi qonuniyatni keltirib chiqaradi¹.

Birinchidan, davlat institutlarining shakllanishi, konstitutsiya moddalarining o'zgarishi, milliy davlatchilik qurilishining asosiy tamoyillari aniqlanishi sinagri fundamental siyosiy muammolar hal qilinadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy masalalar biroz keyinroq jamiyatidagi siyosiy masalalarning yechimlariga kelinganidan so'ng hal qilinadi.

Uchinchidan, modernizatsiyani amalga oshirish tezligining sur'atlari va uning bosqichma-bosqichligi avtoritar rejim tomonidan tartibga solinadi.

To'rtinchidan, resurslarning avtoritar rejim qo'lida jamlanishi turli tarixiy davrlarda erishilishi kerak bo'lgan vazifalarni bir varakayiga hal qilish imkonini berar edi. Masalan, jamiyat hayotining barcha sohalarida informatsion texnologiyalardan foydalanishga o'tish, parlament demokratiyasini yaratish, huquqiy davlat qurish kabi jarayonlar birgalikda olib boriladi.

Shunday qilib modernizatsiya ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy, demografik, sotsial va madaniy sohalarida amal qiluvchi turli xil yo'nalishga ega, ko'p qatlamli, xilma-xil darajada amal qiluvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Modernizatsiyaning ko'plab tur va modellarga ega ekanligi uni amalga oshirishda qo'llanilgan mexanizmlarga bog'liq bo'lib konkret tarixiy davr va hududda ro'y berganligi bilan belgilanadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlariga xos bo'lgan birlamchi yoki organik modernizatsiya tarixiy xronologik jihatdan birinchi sanoat inqilobi davriga mos kelib, o'zining madaniy an'analari va obrazlariga asoslangan holda evolyusion yo'l bilan amalga oshgan. Organik modernizatsiya yo'lidan borgan mamlakatlarni quvib yetuvchi (endogen-ekzogen, ekzogen modernizatsiya) modernizatsiya yo'lidan borgan mamlakatlar bilan solishtirganda mazkur davlatlardagi modernizatsiya jarayonlarida siyosiy omilning roli katta bo'lib, tezlashgan modernizatsiya amalga oshirilgan hududlarda an'anaviy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzilmalarning zamonaviysiga transformatsiyalashuvi uchun yetarlicha qulay shart-sharoit mavjud bo'lmaganligi tufayli ko'p xollarda davlat modernizatsiya tashabbuskori va tashkilotchisi vazifasini bajargan.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Рубанов А.В. Социальное развитие: традиции и современные подходы к изучению. Журнал Белорусского государственного университета. Философия. Психология. С-49-59.
2. Василика М.А. Политология. Ростов-на-Дону. «Феникс». 2004 с. 449.

¹ Василика М.А. Политология. Ростов-на-Дону. «Феникс». 2004 с. 449.